

TALABALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TARBIYAVIY- INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17470072>

Shodmonova Sh.S.

*O'zMPUPedagogika-psixologiya va inklyuziv
ta'lim fakulteti Pedagogika kafedrası professori*

Adizova G.M.

OzMPU o'qituvchisi

Qo'zieva D.A.

*M.Ulug'bek nomidagi
Milliy universitet o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari, ularning mazmuni, mohiyati, uziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Tayanch tushunchalar

Ta'lim, tarbiya, innovatsiya, kreativ, faoliyat, ijodkorlik, integratsiya, fan, munosabat, o'quv, tashkilotchi, saxovatli, sabr-qanoatli, irodali, fidoyi, innovatsion faollik, shaxs.

ПРОЦЕССЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Кузиева Д.А.

*Во имя М.Улугбека
Преподаватель Национального университета*

Абстрактный

В статье рассматриваются процессы подготовки студентов к инновационной деятельности на основе творческого подхода, их содержание, сущность и особенности.

Основные понятия

Образование, обучение, инновации, креативность, активность, творчество, интеграция, наука, отношение, обучение, организатор, щедрый, терпеливый, желающий, бескорыстный, инновационная деятельность, человек.

PROCESSES OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY BASED ON A CREATIVE APPROACH

Quzieva D.A.

*In the name of M. Ulugbek
Lecturer at the National University*

Annotation

This article describes the processes of preparing students for innovative activity based on a creative approach, their content, essence, and distinctive features.

Basic concepts

Education, upbringing, innovation, creative, activity, creativity, integration, science, attitude, learning, organizer, generous, patient-contented, strong-willed, selfless, innovative activity, personality.

Harakatlar strategiyasi ta'lim sohasini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish vazifasini belgilab berdi. Muammoga bunday yondashuv kelajakda rivojlangan malakatlar qatorida O'zbekistonni ham munosib o'rin egallashini ta'minlash muhim ekanligini belgilaydi. Shuningdek ushbu masalaga ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqadigan, ta'lim muassasalaridagi o'qitish metodikasini yanada takomillashtiradigan omillardan biri sifatida qaralishi alohida e'tirof etilgan. Prezidentimiz Farmonida ta'kidlanadiki, "ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" lozim. Buning asosiy sababi shundaki, dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va yondashuvlar kun sayin ortib borayotgani xavfli bo'lib, hozirgi sharoitda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kasb-hunar egallashga hamda ularni kamolga yetishga intilishini inobatga olish va ularga alohida e'tibor qaratish har qachongidanda muhimligini unutmaslik va bunga nisbatan ota-ona, o'qituvchi, tarbiyachi va keng jamoatchilikning e'tibor va nazoratini kuchaytirish o'ta muhim ekanligi bilan farqlanadi. Ayniqsa, ta'lim va ma'rifat bilan yondashish xalq farovonligining asosiy omillaridan biri sanalib, insonlarni ezgulikka da'vat etadi,

tashkilotchi, saxovatli, sabr-qanoatli, irodali, fidoyi, innovatsion faollik sifatlarini tarkib topishga imkon beradi.

Harakatlar strategiyasida бугунги кун талаби асосида ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga, uning integrasiyasiga, islohotlarning ahamiyati va zaruriyatiga nisbatan yondashuv kun sayn ortib bormoqda. Shunga ko'ra, ta'lim va fan sohasini takomillashtirishga bo'lgan yondashuv va munosabat kun sayin ortib bormoqda. Jumladan, "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha qator ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish lozimligi" kabi masalalar alohida qayd etib o'tilgan. [5].

Ma'lumki, ta'lim tizimini rivojlanishining har bir davri o'zining innovatsion pedagogik g'oyalari bilan xarakterlanadi, bu g'oyalar ushbu davrdagi hukmron g'oyaga nisbatan ichki va tashqi bo'ladi. Oliy pedagogik ta'lim tizimida dasturli o'qitish g'oyasi, muammoli o'qitish g'oyasi, modulli o'qitish g'oyasi, kodlashtirilgan o'qitish g'oyasi va boshqalar innovatsion g'oyalar deb qaraladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida esa quyidagi pedagogik g'oyalar innovatsion g'oyalar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- innovatsion fikrlash, innovatsion tafakkur, innovatsion dunyoqarash
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- ta'limning insoniylashuvi va insonparvarligi;
- o'qitishning kredit texnologiyasi;
- o'quv jarayonini texnologiyalashtirish;
- o'quv jarayonini kompyuterlashtirish;
- o'quv jarayoniga o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalarini joriy qilish;
- ta'lim tizimini sifatli boshqarish;
- ta'lim tizimining didaktik asoslari.

So'ngi yillarda pedagogik-psixologiya yo'nalishi adabiyotlarida kreativ, kreativ yondashuv tushunchalari, ularning mazmuni va mohiyatiga oid qarashlar keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, "kreativ kompetentlik", "kreativ salohiyat",

“kreativ qobiliyat” tushunchalari hamda talabalarda kreativlikni shakllantirish, innovatsion tafakkuri va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etishi borasida keng tadqiqotlar olib borilmoqda.

Biz talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda uning “kreativ qobiliyati” va “Innovatsion faoliyati” ning aloqadorligini va o'zaro farqli jihatlarini tadqiqotimiz maqsadi nuqtai nazaridan aniqlashtirishga harakat qilamiz.

“Kreativlik – bu alohidalik emas, balki mahsuldor (produktiv) tafakkurga tegishli shaxsiy ziynat va qobiliyat bilan taqozalangan umumiy qobiliyatdir” “Kreativlik – bu shaxsning egallagan tajribani idrok qilish va anglash qobiliyatidir” [2]. “Kreativlik – bu inson aqliy salohiyatining yuksak darajasi hisoblanib, ob'ektdagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o'zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi” [5].

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, kreativlik inson tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlashiga bog'liq ijodiy yoxud yangilik yaratish bilan tavsiflanadigan qobiliyat ekan. Shu o'rinda psixologiya lug'atiga murojaat qilgan holda “qobiliyat” va “faoliyat” tushunchalarini aniqlash zurur, chunki ular “Innovatsion fikrlash”, “Kreativ qobiliyat” va “Innovatsion faoliyat” asosini tashkil qiladi.

Kreativ fikrlash jarayoni shaxs kamolotida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib mazkur ikki yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi: Kreativ fikrlash ijodiy jarayonlarda yangi-yangi g'oyalarni yaratish vazifasini bajarsa, mantiqiy tafakkur orqali ular saralanib, tekshirilib, tahlil qilinadi.

“Faoliyat insonning voqelik bilan faol o'zaro bog'lanishi bo'lib, sub'ekt sifatida ob'ektga maqsadli ta'sir ko'rsatishi natijasida o'z ehtiyojini qanoatlantiradi” [1]. Demak, faoliyat individning ehtiyoji natijasida bajarilar ekan. Ehtiyoj bu organizmning ichki holati bo'lib, nimagadir zarurat seziladi. Ehtiyoj predmetli bo'ladi, ya'ni uni qanoatlantiradigan motiv bo'lishi kerak. Motivning paydo bo'lishi unga erishishga yo'naltirilgan faoliyatni vujudga keltiradi. Demak, ehtiyoj faoliyat uchun energiya beradi, motiv esa uni yo'naltiradi.

Pedagogik innovatsion faoliyat ham bu keltirilgan nazariyani chetlab o'ta olmaydi, balki maktab ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan jarayon sifatida ifodalanadi.

“Qobiliyat – individual - psixologik alohidalik bo'lib, sub'ektiv shartlar orqali muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir” [1, 354 -356 b]. Qobiliyat individning bilim, ko'nikma va malakalari bilangina tavsiflanmaydi, balki faoliyat usullarini egallashning tezkorligi va mustahkamligini qamrab olinishi bilan belgilanadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda qobiliyatni muayyan faoliyat turi bo'yicha shakllantirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Kreativlik qobiliyat

sifatida andoza (sxema) bo'yicha ishlamaslikni, mustaqil o'zgartirishga ijodiy yondashish muhim o'rin tutishini taqozo etadi.

Shunday qilib, pedagogik innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda kreativlik talabning alohida qobiliyati sifatida pedagogik yangiliklarni ishlab chiqishda ishtirok etishi mumkin va bu muammo alohida tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Talabalarni kelgusida pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim jarayonini sifatli olib borish jarayonida pedagogik ta'limotlardan maqsadli foydalanishga ularning tayyorgarligini ta'minlashning umumiy belgilari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- talabning kelgusida auditoriya bilan kutilayotgan aloqasini o'quvchilar bilan bevosita faoliyat olib borishga tayyorgarlik jarayonidayoq modellashtirishni uddalay olishi;

- o'zining har qanday harakatini o'quvchilar ko'zi bilan ko'ra olish qobiliyati, o'zining pedagogik harakatlari mazmuni va natijalarini o'quvchi ongida, qarashlarida qanday aks etganini aniqlay olish qobiliyati va bunga bo'lgan xohish, istak;

- o'quvchilarning his - hayajonli munosabati, birdamligi, bu o'qituvchiga darsda kutilayotgan vaziyatni oldidan ko'ra olish, dars paytida kutilishi mumkin bo'lgan o'zaro aloqalar saviyasini his qila olish va uni kelajakda rivojlantirishga yordam beradi;

- o'quv jarayoniga har bir o'quvchining sub'ektiv tajribasini qo'sha olish ko'nikmasi;

- hamkasabasining nuqtai nazarini tushunish ko'nikmasi hamda bir vaqtda jamoada prinpiiallik, talabchanlik va boshqalar.

Qayd etib o'tilganlar ustuvor ravishda talabning pedagogik qarashlarini oldindan belgilab beradi, bu qarashlar uning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan Innovatsion faoliyatini amalga oshira olish yoki olmasligini aniqlashga ko'maklashadi.

Mazkur jarayonda talabning kelajak o'qituvchisi faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar uning innovatsion faoliyatining muhim tavsifi hisoblanadi. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov [5]: "Ko'nikmalarni shakllantirish – kasbiy ta'limning majburiy pirovard maqsadi, uning yakunidir. Ko'nikma o'quvchi tayyorgarligini belgilab beruvchi eng yaxshi omil bo'lib, u o'quvchi shaxsining xususiyatiga aylanadi". Demak, ko'nikma va malakalar qo'yilgan maqsad, ma'lum shart-sharoitlar, berilgan samaradorlik va sifat darajasiga muvofiq ravishda faoliyatning ma'lum bir turlarini amalga oshirishga sub'ektning tayyorgarligini nazarda tutadi.

Innovatsion ko'nikma va malakalarni ajratib ko'rsatishda quyidagilar e'tiborga olindi: birinchidan, yangi davr pedagogiga qo'yiladigan zamonaviy talablar; ikkinchidan, o'qituvchining amaliy faoliyati, bu faoliyatni o'rganish ko'p miqdordagi empirik materiallardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Kosuxin V.M. Model otsenki ob'ema sodержaniya uchebnoy yedinişы s uchyotom yeyo slojnosti: Sb.nauch.tr. VIPS. – Orel: 1998. - №8.
2. Kuzmina I.V., Rean A.A. Professionalizm pedagogicheskoy deyatel'nosti. – M.: Pedagogika, 1993. – 172 s.
3. Brown Brene. Daring greatly: How the courage to be vulnerable transforms the way we live, love, parent and lead.// www.amazon.com
4. Guilford L.P., Demos G.D., Torrance Ye.P. Factors That Aid and Hinder. Creativity// Creativity it's educational implications. John Wiley and Sons, ns.W.Y.1967, 336p.
5. Psixologicheskiy slovar pod red. Davidov V.V. i dr. M.: Pedagogika 1983g.
6. Torrance Ye.P./ Developing creative thinking school yexperience// - N.V.,1962.-p215.
- 7.